



UDK: 616-036.22:911.3:614.2

Komilaxon D. XUSANOVA,

Tayanch doktorant, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: xusanovakomilaxon711@gmail.com, ORCID: 0009-0000-6113-916X

Nilufar K. KOMILOVA,

Geografiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: ni.komilova@nuu.uz, ORCID: 0009-0005-0848-717X

Dots., g.f.n L. Karshibayeva taqrizi asosida

PREVALENCE OF DISEASES AMONG TaYE POPULATION OF ANGREN CITY AND TaYEIR TERRITORIAL ASPECTS

Annotation

This article focuses on the prevalence of diseases among the population of Angren city and their territorial aspects. Based on the analysis, proposals and recommendations have been developed to improve public health and the nosogeographical situation in the city area.

Keywords: population morbidity, nosogeographical situation, disease dynamics, respiratory diseases, infectious diseases, disease foci, medical geography.

РАСПРОСТРАНЕНИЕ ЗАБОЛЕВАНИЙ СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ ГОРОДА АНГРЕН И ИХ ТЕРРИТОРИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ

Аннотация

В данной статье рассматриваются распространенные заболевания среди населения города Ангрена и их территориальные особенности. На основе проведенного анализа разработаны предложения и рекомендации по улучшению состояния здоровья населения и нозогеографической ситуации на территории города.

Ключевые слова: заболевания населения, нозогеографическая ситуация, динамика заболеваний, болезни органов дыхания, инфекционные заболевания, очаги заболеваний, медицинская география.

ANGREN SHAHRI AHOLISI O'RTASIDA TARQALGAN KASALLIKLAR VA ULARNING HUDUDIIY JIHLATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Angren shahri aholisi o'rtasida tarqalgan kasalliklar va ularning hududiy jihatlari ahamiyat qaratilgan. Tahlillar asosida shahar hududida aholi salomatligi va nozogeografik vaziyatni yaxshilashga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Aholi kasalliklari, nozogeografik vaziyat, kasalliklar dinamikasi, nafas olish a'zolari kasalliklari, yuqumli kasalliklar, kasallik o'choqlari, tibbiyot geografiyasi.

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida butun dunyoda shaharlarning ekologik holati va aholisi kasallanish ko'rsatkichlarini yaxshilash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. BMT ning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo'yicha dasturining 3-maqsadi global salomatlikni saqlash masalalariga alohida ahamiyat qaratilganligi ham buning yaqqol isbotidir[10]. Yurtimizda ham aholi salomatligiga oid masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda ham aholi salomatligiga oid masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi 79-maqsadida[12] "Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish; atrof-muhitning ifloslanish darajasini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, atrof-muhitni kuzatish, uning ifloslanish darajasini prognoz qilish, davlat ekologik nazoratini doimiy axborot bilan ta'minlash, ifloslantiruvchi manbalarning holati va atrof muhitga ta'siri ustidan monitoringni amalga oshirish" belgilab qo'yilgan. Bu borada hududlar nozogeografik vaziyati va aholi salomatligi muammolariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada Angren shahri aholisi o'rtasida tarqalgan kasalliklarning hududiy jihatlari ahamiyat qaratilgan.


Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahonda ko'plab olimlar tomonidan aholi o'rtasida tarqalgan kasalliklar hamda ularning hududiy jihatlari o'rganishga qaratilgan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Indoneziyalik Teoxrasiya Latue Shaharlardagi yuqumli kasalliklarning geografik jihatlari, shahar hududlaridagi yashil yerlarning turar-joy, tijorat va sanoat zonalariga aylanishiga shahar issiqlik oroli, havo va suv ifloslanishiga olib kelishi va ushbu jihatlarning aholi salomatligiga ta'sirini o'rgangan [1]. Uning hamkasbi Philia S Latue ham shaharlardagi yuqumli kasalliklar bilan bog'liq nozogeografik tadqiqotlar olib borgan hamda shaharlar nozogeografik vaziyatini GIS texnologiyalarida tadqiq etish bilan shug'ullangan [2]. Fransiyalik tadqiqotchi Anne Maitre shaharlar atmosfera havosining ifloslanishining yurak-qon tomir kasalliklariga ta'sirini, shu bilan birga shaharlar havosi ifloslanishi oqibatida aholi orasida bir qator kasalliklar avj olishini tadqiq qilgan. Shu kabi tadqiqotlar Shvedsiyalik olim Mats Rosenlund tomonidan ham olib borilgan bo'lib, uning tadqiqotlari shahar havosi ifloslanishi natijasida miokard infarkti kasalligining avj olishi holatlariga bag'ishlanadi. Xitoylik Haiyan Shao Shaharlardagi tibbiy xizmat sifatini tadqiq qilish, Jin Chen esa shahar yashil maydonlari, tibbiy xizmat sifatini o'rganish bilan shug'ullanganlar [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Butun dunyoda nozogeografik tadqiqotlarning bir qator ustuvor yo'nalishlari, shu jumladan aholi salomatligi, aholi kasalliklari va ularning hududiy jihatlari o'rganishga oid tadqiqotlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Bizning mazkur tadqiqotimiz davomida jahon va O'zbekistonda shu masalalarga oid tadqiqotlar bilan shug'ullangan olimlar tadqiqotlari

chuqur o'rganildi va adabiyotlar tahlili usuli yordamida umumlashtirildi. Shu bilan birga geografik taqqoslash, statistik tahlil usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Angren shahri aholi orasida turli kasalliklar yuzaga kelgan bo'lib, ularni tahlil qiladigan bo'lsak, har bir kasallik o'ziga xos jihatlarni namoyon qiladi. Angren shahrida aholi orasida tarqalgan kasallik turlari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich nafas a'zolari kasalliklariga to'g'ri keladi.

Shu bilan bir qatorda qon va qon yaratuvchi a'zolar kasallanishi/immun mexanizmiga ta'sir etuvchi ayrim buzilishlar bilan kasallanish, yurak-qon tomir kasalliklari, asab tizimi kasalliklari, ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklariga ham sezilarli darajada yuqori. Ushbu kasalliklarning 2010-2025-yillardagi dinamikasiga ahamiyat qaratadigan bo'lsak, nafas a'zolari kasalliklari bilan kasallanish 2025-yilda 2010-yildagiga nisbatan oshgan. Teri va teri osti to'qimalari kasalliklari, yuqumli va parazitlar kasalliklar ko'rsatkichlari ham ancha sezilarli darajada ko'paygan (1-rasm).



1-rasm. Angren shahrida ayrim kasallik guruhlarini dinamikasi

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

Angren shahrida aholi orasida kuzatiladigan yuqumli parazitlar kasalliklarini turlariga ko'ra tahlil qilsak, yuqori va quyi nafas olish yo'llarining o'tkir infeksiyalari eng yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Keyingi o'rinda enterobioz kasalligi turadi. Enterobioz asosan yosh bolalar orasida keng tarqaladi. Bu gijja kasalligi bo'lib sanitar-gigiyenik talablarga yaxshi rioya qilinmaganda va bolalar immuniteti past bo'lganda avj oladi [4]. Angren shahrida yuqumli parazitlar kasalliklar bilan kasallanish ko'rsatkichlari orasida o'tkir ichak infeksiyalari bilan kasallanish hamda virusli gepatit kasalligi ham ancha yuqori. Terining yuqumli kasalliklaridan hisoblangan qo'tir va mikrosporiya kasalliklari bilan kasallanish so'nggi yillarda oshib bormoqda. Ushbu jarayon Angren atmosfera havosi tabiiyidagi ifloslantiruvchi moddalarning ta'sirida teri himoya qatlamining zaiflashishi bilan aloqador bo'lishi mumkin. Shahar hududida chorva mollaridan, sterilanmagan sut, go'sht mahsulotlaridan yuquvchi brutsellyoz kasalligi ham so'nggi yillarda oshib borgan. Bunga aholi chorvachilik bilan shug'ullanadigan hududlarning mavjudligi, aholi chorva mollaridan oluvchi sut va go'sht mahsulotlari iste'molida ehtiyotsizlik qilishi sabab bo'lishi mumkin [5;6]. Angren shahrida aholi kasallanishining dipanser ko'rsatkichiga ko'ra yurak-qon tomir kasalliklari, nafas olish a'zolari kasalliklari, o'sma kasalliklari ancha yuqori va so'nggi yillarda oshib borayotganini ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

Angren shahrida o'sma kasalliklari ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshib borayotganligi, ayniqsa fertil yoshdagi ayollarning aynan shu turdagi kasalliklar bilan kasallanayotgani alohida ahamiyat qaratish lozim bo'lgan jihatlardan biri. Fertil yoshdagi ayollar orasida ko'krak bezi saratoni, bachadon saratonlari ustun hisoblanadi. Shu bilan birga shahar aholisi orasida homiladorlik davri asoratlari, tug'ma nuqsonlar, qandli diabet, allergik rinit, siydik tosh kasalliklari, o't-tosh kasalliklari, 12 barmoqli ichak kasalliklari, periferik asab tizimi kasalliklari va boshqa turdagi kasalliklar ham uchraydi.

1-jadval

Angren shahri aholisining ayrim kasallik sinflari bilan kasallanishining dispanser ko'rsatkichi (1991-2025-yillar, 100 ming aholiga)

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

	Kasallik sinflari	Yillar							
		1991	1995	2000	2005	2010	2015	2020	2025
1	O'sma kasalliklari	1489,1	1764,7	1976,2	2247,3	2410,7	2557,2	3851,4	3912,8
2	Yurak-qon tomir	82923,7	89645,8	91701,1	95229,1	93422,6	90664,4	100674,4	110871,6
3	Nafas olish a'zolari kasalliklari	22742,1	25192,9	26410,3	28104,2	28256,0	28101,6	29931,5	30681,9

Angren shahrida aholi orasida tarqalgan kasalliklarning hududiy jihatlari tahlil qiladigan bo'lsak, nafas olish a'zolari kasalliklari asosan sanoat korxonalariga atrofida, Angren ko'mir koniga yaqin hududlarda nisbatan yuqoriroq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Aholi orasida tarqalgan kasalliklarga oid ma'lumotlar asosan oilaviy poliklinikalar kesimida bo'lganligi sababli, tahlilda shuni inobatga olamiz. Nafas a'zolari kasalliklari bilan kasallanish ko'rsatkichlari asosan Angren shahrining 4-oilaviy poliklinikasiga qarashli aholi orasida yuqori bo'lib, ushbu poliklinikaga Angren ko'mir koniga yaqin hududda istiqomat qiluvchi aholi murojaat qiladi. Homiladorlik davri asoratlari, tug'ma nuqsonlar ko'rsatkichlari bo'yicha shaharning 4-oilaviy poliklinika hududi 1-o'rinni egallaydi. Asab tizimi kasalliklari esa asosan 3-oilaviy poliklinikaga qarashli hududlarda nisbatan yuqori. Endokrin tizimi kasalliklari asosan shaharning markaziy kvartallarini o'zida jamlagan hududlarni qamrab oluvchi 1-oilaviy poliklinika hududida ancha yuqori. Ushbu poliklinikaga asosan ko'p qavatli turar joylarda yashovchi, shaharning transport ancha serqatnov qismlarida yashovchi aholi murojaat qiladi. Shaharning 2-oilaviy poliklinikaga qarashli hududida esa qon yaratish a'zolari kasalliklari ancha yuqori ko'rsatkichlarga ega.

Angren shahrida aholi orasida qon aylanish tizimi, nafas olish a'zolari kasalliklarining ustunlikka ega ekanligi, unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni chuqurroq tahlil qilishni talab etadi.

Angren shahrida aholi kasalliklari va ularning hududiy jihatlariga oid tahlillarni inobatga olgan holda tibbiy profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish zarur. Aholi va tibbiyot hodimlari o'rtasida ishonchli va tizimli aloqani yo'lga qo'yish lozim, keksalar va homilador ayollar uchun targ'ibot ishlarini kuchaytirish lozim. Shahar aholisi salomatligini saqlashga oid xorijiy tajribalarni o'rganish ham muhim [7;8;9]. Shu bilan bir qatorda kasalliklar bo'yicha geografik axborot bazasi yaratish (GIS asosida), elektron sog'liq monitoring tizimlarini joriy qilish, reabilitatsiya markazlari faoliyatini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tadqiqot davomida shahar hududida nafas olish a'zolari kasalliklari bilan kasallanish ko'rsatkichlarining nisbatan yuqori ekanligi qayd etildi. Bundan tashqari Angren shahrida yurak-qon tomir, asab, ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari, teri kasalliklari, yuqumli parazitlar kasalliklari ham ancha sezilarli darajada ekanligi, ushbu kasalliklar bilan bog'liq tibbiy-profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirishni talab etadi. Angren shahrida tarqalgan kasalliklarni vujudga kelish sabablari va kasallik o'choqlarini aniqlash, bu bo'yicha geografik axborot bazasi yaratish (GIS asosida) hamda aholi kasalliklarining hududiy jihatlariga oid tadqiqotlarni keng va tizimli tashkil etish yanada samarali natija beradi.

ADABIYOTLAR

1. Latue T., Latue P. Analysis of Land Use Change on Environmental Degradation: A Literature Review // Jurnal Riset Multidisiplin dan Inovasi Teknologi. – 2023. – Vol. 2. – P. 1-11.
2. Rifai A., et al. Spatial analysis of built-up land development in 1995 and 2025 // Jurnal Geosains West Science. – 2025. – Vol. 3. – P. 48-56.
3. Shao H., et al. Supply-demand matching of medical services at a city level // BMC health services research. – 2022. – Vol. 22(1). – 354.
4. Wilson, M. E. Geography of Infectious Diseases / M. E. Wilson // Infectious Diseases. – 2017. – P. 938–147.e1. – DOI: <https://doi.org/10.1016/B978-0-7020-6285-8.00106-4>
5. Markoski, B. Geographical distribution of diseases in the world / B. Markoski, T. Meloska. – 2016.
6. Sclar, E. D. Urban Health: An Overview / E. D. Sclar, N. Volavka-Close // Encyclopedia of Environmental Health. – 2011. – P. 556–564. – DOI: <https://doi.org/10.1016/B978-0-444-52272-6.00322-6>
7. Burris, S. Emerging strategies for healthy urban governance / S. Burris, T. Hancock, V. Lin // Journal of Urban Health: Bulletin of the New York Academy of Medicine. – 2007. – Vol. 84, № 1. – P. 154–163. – DOI: 10.1007/s11524-007-9174-6.
8. Galea, S. Handbook of Urban Health/ S.Galea, D. Vlahov. – New York: Springer, 2005. – 410 p.
9. Harpham, T. Urban health in developing countries: A review/T. Harpham, C. Molyneux // Progress in Development Studies. – 2001. – Vol. 1, № 2. – P. 113–137.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil, 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <http://lex.uz/docs/5841063>
11. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari.
12. <https://sdgs.un.org/goals>